



UDK: 821.512.133.09:28-587

**Mohinur ALIXONOVA,**  
*O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti*  
*E-mail:mohinuralixonova392@gmail.com*

*O‘zRFA yetakchi ilmiy xodimi, f.f.d., professor U.Hamdami taqrizi asosida*

**ASQAR MAHKAM IJODIDA TASAVVUF TIMSOLLARI VA RAMZLARINING YANGILANISHI VA IRFONiy  
TALQINI**  
Annotatsiya

Ushbu maqolada iste’dodli shoir Asqar Mahkam ijodida tasavvufiy timsollarning qo‘llanilishi, ularning irfoniy mohiyati va badiiy-estetik vazifalari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida shoirning turli yillarda yozilgan she’rlari hamda “Ishq” she’riy qissasi tahlilga tortiladi. Maqolada shoirning mumtoz adabiyot an’analarini zamonaviy she’riyat bilan bog‘lashdagi o‘ziga xos mahorati, timsollar silsilasidagi evrilishlar va ularning estetik vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqot shoir ijodini yangicha metodologik qarashlar asosida tushunishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Asqar Mahkam, tasavvuf, irfon, timsol, ramz, “Ishq” she’riy qissasi, estetik vazifa, majoz.

**ОБНОВЛЕНИЕ И ИРФАНИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СУФИЙСКИХ ОБРАЗОВ И СИМВОЛОВ В  
ТВОРЧЕСТВЕ АСКАРА МАХКАМА**

Аннотация

В данной статье исследуются использование суфийских символов в творчестве талантливого поэта Аскара Махкама, их ирфоническая суть и художественно-эстетические функции. В ходе исследования анализу подвергаются стихотворения поэта разных лет, а также поэтическая повесть “Ишк”. В статье анализируются своеобразное мастерство поэта в сочетании традиций классической литературы с современной поэзией, эволюция системы символов и их эстетические задачи. Исследование служит пониманию творчества поэта на основе новых методологических взглядов.

**Ключевые слова:** Аскар Махкам, суфизм, ирфан, символ, образ, поэтическая повесть “Ишк”, эстетическая функция, аллегория.

**RENEWAL AND IRFANIC INTERPRETATION OF SUFI IMAGES AND SYMBOLS IN THE WORKS OF ASKAR  
MAHKAM**

Annotatton

In this article, the use of Sufism symbols in the creative work of the talented poet Askar Mahkam, their irfoni (gnostic) essence, and artistic-aesthetic functions are researched. During the research, the poet's poems written in different years and the poetic story “Ishq” are analyzed. The poet's unique skill in connecting the traditions of classical literature with modern poetry, transformations in the sequence of symbols, and their aesthetic functions are analyzed in the article. The research serves to understand the poet's creativity based on new methodological perspectives.

**Keywords:** Askar Mahkam, Sufism, Irfan, symbol, emblem, “Ishq” poetic story, aesthetic function, allegory.

**Kirish.** Zamonaviy o‘zbek she’riyatida tasavvuf an’analarining davom etishi badiiy tafakkur hamda poetik idrokning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Tasavvufiy she’riyat tahlilida shakliy xususiyatlardan ko‘ra, matnning yashirin ma’no qatlamlari va irfoniy mazmunini yoritish birlamchi ahamiyatga ega. Ma’lumki, irfon tushunchasi bilishning botiniy shakli bo‘lib, u mantiqiy-aqliy idrokdan farqli o‘laroq, haqiqatni qalb vositasida kashf etishni anglatadi. Shu ma’noda, Asqar Mahkam ijodida qo‘llanilgan tasavvufiy timsollar, ularning irfoniy talqini va badiiy-estetik vazifalarini tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Asqar Mahkam 1958-yil 27-noyabrda Tojikistonning Kofarnihon tumanida tug‘ilgan. Xo‘jand Davlat pedagogika institutini tamomlagan (1981). “Navro‘z” (1988), “Tazarru” (1982), “Tavajjuh”, “Ishq” (1994), “Ibodati” (1993), “Haq” (1998), “Analhaq”, “Tabrizi daftari”, “Oqkitob” (2003) kabi asarlari nashr etilgan. “Avesto”, Xoja Abdulloh Ansoriyning “Kashf ul-asror” (Qur’oni Karimning adabiy-irfoniy tafsiri), J.Rumiyning “Ma’naviy masnaviy”ini, Shams Tabriziyning g‘azallari

hamda Eron shoirlari she’rlaridan namunalar tarjima qilgan. (“Tuyg‘ular yoprogi”, 2005)[1]. Shoir haqida ko‘plab xotira-maqolalar yozilgan, biroq uning butun ijodiy merosini (she’riyat, dostonchilik, tarjima va publitsistika) yaxlit holda qamrab olgan fundamental monografiyalari hali yaratilmagan. Asqar Mahkam poetik dunyosini zamonaviy adabiyotshunoslik metodlari asosida o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar davomida tarixiy-qiyosiy, biografik hamda germenevtik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, shoir ijodidagi tasavvufiy ramzlarning an’anaviy ma’nolari hamda ularning zamonaviy she’riyat kontekstidagi badiiy evrilishlarini aniqlashda qiyosiy-tipologik yondashuvga tayanildi. Bu esa shoir poetik olamidagi irfoniy mohiyatni xolis va ilmiy baholash imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Avvalo, shoir ijod qilgan davr (XX asr oxiri) insoniyat moddiylikka (materializmga) botgan, an’anaviy qadriyatlar ikkinchi darajaga tushib qolgan davr edi. Tasavvufiy timsol va ramzlar esa adabiyotga “Ruh”ni qaytardi, deyish mumkin. Asqar Mahkam “Ishq – baloyi jon”, deb

hayqirganda, odamlarni faqat moddiy ehtiyojlar bilan yashashdan to'xtab, o'z botiniga nazar solishga chaqirdi. Sovet davri she'riyatida til biroq "yer yuziga tushib", oddiylashtirib qolgan edi. Tasavvufiy she'riyatning qaytishi o'zbek adabiyotiga ko'p ma'nolilikni, mumtoz ohangni, falsafiy chuqurlikni qaytarib berdi. Asqar Mahkam mumtoz so'zlarni shunchaki lug'atlardan olmadi, ularni zamonaviy she'rning qoniga singdirdi. Tasavvufiy "darveshlik" yoki "devonalik" timsollari zamonaviy she'riyatda erksevarlik ramziga aylandi. Agar Asqar Mahkam kabi shoirlar bu ramzlarni qayta olib kirmaganida, zamonaviy she'riyat quruq ijtimoiy hayqiriqlardan yoki yuzaki his-tuyg'ulardan iborat bo'lib qolar edi. Tasavvuf zamonaviy adabiyotga chuqur mantiq va insonning ilohiy tabiati haqidagi eslatmani olib kirdi.

Asqar Mahkam she'rlari o'zining olovli va shafqatsiz samimiyati bilan boshqa zamonaviy shoirlardan ajralib turadi. U mumtoz timsollarni shunchaki qo'llamadi, balki ularni bugungi kunning ma'naviy o'liklariga jon berish uchun qurbon qildi. Shoir lirikasi an'anaviy mumtoz she'riyatdagi ramziy tizim bilan uzviy aloqada bo'lsa-da, ularni zamonaviy poetik tafakkur bilan boyitadi. Shoir ramzlar orqali to'g'ridan-to'g'ri hukm yoki xulosa bermaydi, aksincha, o'quvchini shaxsiy mushohadaga chorlaydi. Bu jihat tasavvuf timsollarining estetik vazifasini kuchaytirib, ularni nafaqat ma'no tashuvchi, balki ta'sir manbaiga aylantiradi. Shoirning "Qayoqda" radifli she'ri mumtoz adabiyot an'analari zamonaviy talqini deyish mumkin:

Yer ostida do'zah magaram yetti qabatdir,  
Marhum, agar yer bu, osmon qayoqda?[2]

An'anaviy diniy tasavvurga ko'ra, do'zah yerning ostida, yetti qavat pastda deb bilinadi. Shoir bu yerda "magaram" (shunday bo'lsa kerak, ehtimol) so'zini ishlatib, bir farazni o'rta tashlaydi. U atrofdagi hayotga, odamlarning ishqsizligiga, zulmga va ma'naviy o'likligiga qarab aytmoqdaki: "Agar biz yashayotgan mana shu yer dunyo bo'lsa, unda do'zah qani? Imom Buxoriy "Al jome as-sahih"da: "Qavlulu taolo: "Innal-munofiqliyina fiddarkil asfali minannori", ya'ni "Munofiqlarning, albatta, qarorgohi do'zaxning tagidadir" va munofiqlar uchun alomat bordir", deydi[3]. Shoir esa "balki biz allaqachon do'zaxning o'zidirmiz?, deya o'ziga yoki o'quvchiga "marhum" deb murojaat qiladi. Bu "ma'nan o'lgan inson" deganidir. Ya'ni, biz tirikmiz deb o'ylaymiz, lekin aslida ruhimiz o'lib bo'lgan. Agar biz yashayotgan joy do'zah bo'lsa, unda biz intiladigan, najot kutadigan "osmon" – yorug'lik, poklik qani? Shoir borliqning muvozanati buzilganidan, osmon ko'zdan yo'qolganidan qayg'uiga botgan.

Har mard vali-yu hama avratki maloik,  
Men qaydayu, sen qaydayu, shayton qayoqda? [4]

Birinchi misrada shoir atrofga nazar tashlab, hamma o'zini haddan tashqari "yaxshi", "taqvodor" va "avliyo" qilib ko'rsatayotganini aytadi. Mardlar (erkaklar) – go'yo hammalari "vali", avratlar (ayollar) – go'yo hammalari "maloik" (farishta). Bu jamiyatning tashqi niqobidir. Shoir hamma o'zini aybsiz va pokiza qilib ko'rsatayotgan, ma'naviyatdan dars berayotgan bir muhitni tasvirlaydi. Agar hamma avliyo va hamma farishta bo'lsa, unda dunyodagi bu qadar zulm, adolatsizlik, ishqsizlik va yomonlik qayerdan kelyapti? Agar hamma "pok" bo'lsa, yomonlikning egasi – Shayton qani? U kimning ichiga yashiringan? Asqar Mahkam bu yerda riyokorlikni nishonga oladi. Mumtoz adabiyotda shayton aniq dushman edi. Asqar Mahkamda esa shayton "yo'qolgan", u odamlarning "avliyo" va "farishta" niqoblari ostiga shu qadar chuqur kirib ketganki, endi uni tanib bo'lmay qolgan. Shoir "hamma yaxshi" degan yolg'onni shunaqa shafqatsiz so'roqqa tutadiki, o'quvchi o'z-o'zidan: "Haqiqatan ham, agar hamma yaxshi bo'lsa, nega dunyo bu qadar yomon?" deb o'ylashga majbur bo'ladi.

To Ishq Zulayxo esa, to Ishq bu holdir,

Ya'qub qani? Yusufi Kan'on qayoqda?[5]

Mumtoz adabiyotda Zulayho obrazi avvaliga dunyoviy ishqqa muhtalo bo'lgan, ammo oxir-oqibat bu ishq orqali Haqiqiy Ishqqa yetishgan oshiq timsolidir. Timsolning baytdagi vazifasi go'zallikning o'tkinchi ko'rinishidan uning ma'naviy mohiyatiga intilishni ko'rsatishdir. Yusuf (a.s.) timsoli tasavvufda Allohning Jamol sifatining yer yuzidagi in'ikosi, adabiyotda estetik ideal hisoblanadi. Ya'qub (a.s.) timsoli tasavvufda "G'am uyi" (Baytul-ahzon) bilan bog'liq muhitni yaratib, ayriqlik azobining naqadar go'zal va pokiza bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ko'z nuridan ayrilish orqali o'tkinchi dunyoga yopilib, basirat olami bilan ko'rishning ramziy ifodasi o'laroq maydonga chiqadi. Tasavvufda "hol" bu inson ixtiyorida tashqari, Alloh tomonidan qalbga solinadigan ruhiy jarayondir. "Hol – maqomot darajalarini bir-bir egallab, muvaffaqiyatga erishgan solik hol martabasiga yetadi va tasavvur-taxayyulda ilohiy jamolni mushohada qila boshlaydi, qalbini zavqu shavq qamrab oladi" [6]. Ushbu baytda shoir o'z davri insonlari muhabbatining yuzakiligidan noliydi, real hayotdagi "ishq" tushunchasining naqadar "rangpar" va "qadrsiz" bo'lib qolganini estetik jihatdan fosh etadi. U "Zulayhodek o'zidan kechadigan, Ya'qubdek sabr qiladigan va Yusufdek nur sochadigan ishq qani?", degan savolni qo'yadi. Mumtoz adabiyotda Yusuf, Ya'qub va Zulayho timsollari muayyan bir tartib va nizom asosida edi. Asqar Mahkamda esa bu timsollar yo'qotilgan yoki erishib bo'lmay ideal sifatida namoyon bo'ladi. U "Qani?" va "Qayoqda?" deb so'rash orqali, zamonaviy insonning ma'naviy ildizlaridan uzilib qolganini, dunyoning "Yusufsiz" – Ilohiy nursiz qolganini ko'rsatadi.

Asqar Mahkam she'rlarida tasavvufiy timsollarga shaxsiy-psixologik dunyoqarash yuklagan bo'lsa, "Ishq" she'riy qissasida bu timsollarni umuminsoniy va ontologik miqyosga ko'targan.

Yer qip-qizil olma edi go'yo bihisht  
olmasidek qurt tushmagan churumagan  
Azozilning kir nazari qadalmagan  
Yer qip-qizil olma edi Momo Havo –  
yuzlaringdek  
dudog'ingdek  
yonog'ingdek...[7]

Qurt tushmagan olma – bu hali insoniyat gunohga botmagan, dunyo sof va pokiza bo'lgan zamon ramzi. Olma – ham jannat mevasi, ham insonning "taqiqlangan mevaga" intilishi natijasida Yerga tushishiga sababchi bo'lgan timsol. Azozilning nazari – Iblisning hali bu olamga yovuzlik va hasad urug'ini sochmaganiga ishora. Ya'ni, dunyo hali fitna va buzg'unchilikdan xoli bo'lgan payt. Muallif Yerning go'zalligini ayol timsoliga qiyoslaydi. Yer – hayot manbai, ayol ham hayot beruvchi. "Yuzingdek, dudog'ingdek" degan o'xshatishlar orqali shoir ilohiy go'zallikni lirik qahramonning suyuklisi darajasiga tushiradi. Olim N.Go'yushovga ko'ra, Odam (a.s.) va Momo Havvo bir-birini to'ldiradi. Tangrining ism va sifatleri Odamda jamlangan bo'lsa, bu sifatlarining hayotda davom etishi va koinotning ma'naviy joni Momo Havvo orqali zohir bo'ladi [8].

Bolalari – jigarlari bir yon tursin  
bir yon tursin  
Azozilga ham inongan  
Momo Havo Momo Havo  
Azozilning shahdu shakkar qutqusidan  
qutqusidan  
Dudoqlari o'tda yongan  
Momo Havo Momo Havo[9].

Yovuzlik hech qachon xunuk qiyofada kelmaydi, u har doim shirin, jozibador va vadalarga boy (shahdu shakkar) ko'rinishda bo'ladi. Shoir "Momo Havo" ismini takrorlash orqali dostonning musiqiyiligini oshirish bilan birga, butun

insoniyat onasiga nisbatan ham achinish, ham ayblash tuyg'usini uyg'otadi. Bu satrlar o'quvchini "Biz hamon o'sha xatoni takrorlamayapmizmi?" degan savol ustida o'ylashga majbur qiladi. Asarda qo'llanilgan Gado, Odam, Azozil, Olma, Qush kabi tasavvufiy timsol va ramzlar o'quvchini moddiy olamdan intellektual-ruhiy olamga olib o'tadi. Masalan, "Gado" – insonning sadoqatli vijdoni bo'lsa, "Odam" – adashishga moyil bo'lgan bashariyatning umumiy siymosi. Bu ikki timsolning muloqoti orqali shoir insonning o'z ichki dunyosi bilan bo'lgan abadiy ziddiyatini tasvirlaydi. "Ishq" timsoli asarda dunyoning o'zagi sifatida olinadi. U "qaysar", "qaynoq" va "jon" kabi sifatlar bilan boyitilib, insonni hayvoniy darajadan qutqarib, ilohiy martabaga yaqinlashtiruvchi yagona vosita sifatida ko'rsatiladi. Asqar Mahkam tasavvufiy timsol va ramzlarni shunday qo'llaydiki, ular orqali insoniyatning jannatdan Yerga tushish fojiasi va Yerdan yana Jannatga qaytish umidi o'rtasidagi masofani qisqartiradi. Ramzlar

yordamida shoir tarixdagi "Odam"ni bugungi zamon kishisiga aylantiradi, ya'ni asar zamon va makon chegaralaridan chiqib, abadiy insoniy qadriyatlar haqidagi doston bo'lib qoladi.

**Xulosa va takliflar.** Maqolada amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Asqar Mahkam ijodi o'zbek she'riyatida an'anaviy tasavvufiy timsollarning zamonaviy tafakkur prizmasidan o'tgan o'ziga xos talqinidir. Shoirning lirik merosi va "Ishq" she'riy qissasi misolida ko'rinadiki, u mumtoz adabiyotimizga xos bo'lgan ramz hamda timsollarni shunchaki takrorlamaydi, balki ularni bugungi insonning ruhiy iztiroblari va jamiyat o'rtasidagi munosabatlari bilan bog'laydi. Shoir qo'llagan tasavvufiy timsollar hozirgi adabiy jarayonda yangicha ma'no kasb etadi. Asqar Mahkamning poetik olami mumtoz an'analarni bugungi kun dardlari bilan tutashirgan ma'naviy ko'prikdir. Shoir asarlarini o'rganish hozirgi o'zbek adabiyotidagi tasavvufiy she'riyatning rivojlanish bosqichlarini anglashda muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Rahmatov M. O'zbek zamonaviy she'riyati antologiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022. – B. 305.
2. Маҳкам. А. Сайланма. – Т.: Тафаккур, 2017. – Б. 113.
3. Болтабоев Х. Ислом тасаввуфи манбалари: Илмий мажмуа. – Т.: O'qituvchi, 2005. – Б. 44.
4. Маҳкам. А. Сайланма. – Т.: Тафаккур, 2017. – Б. 113.
5. Маҳкам. А. Сайланма. – Т.: Тафаккур, 2017. – Б. 113.
6. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: O'ZBEKISTON, 2009. – Б. 30.
7. Маҳкам А. Ишқ. – Т.: Чўлпон, 1993. – Б. 26.
8. Göyüşov N. Tesevvüf anlamları ve dervişlik remzleri. – Bakı, 2001. – B. 37.
9. Маҳкам А. Ишқ. – Т.: Чўлпон, 1993. – Б. 29.